

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N.Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
"Qutadg'u biling"dagi Allohnning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida	411
Х.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalaldinova	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyerberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning "Enashamol" qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva,N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



УО'К: 070.44(560)"1919/1924"

**TURKISTONDA HARBIY JURNALIST KADRLAR TAYYORLASH TARIXIDAN
(1919–1924 yillar)**

**ИЗ ИСТОРИИ ПОДГОТОВКИ ВОЕННЫХ ЖУРНАЛИСТОВ В ТУРЦИИ
(1919-1924 гг.)**

**FROM THE HISTORY OF TRAINING OF MILITARY JOURNALISTS IN TURKEY
(1919-1924)**

Muxamadiyeva Laziza Nizomovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Tarix kafedrası doktorantı

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston ASSR matbuot tizimida faoliyat olib borgan kadrlar, ularning milliy tarkibi tahlil qilingan. Ushbu maqsad yo'lida kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yilishi, muammo va yechimini muvaffaqiyati hal qiluvchi omildir. Bunda matbuot sohasidagi xodimlarning milliy tarkibi TASSRdagi boshqa davlat organlaridagi kadrlar tarkibi bilan qiyoslagan holda o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются кадры, работающие в системе печати Туркестанской АССР, их национальный состав. Одним из главных вопросов является система подготовки кадров, повышения их квалификации и переподготовки. Правильная реализация этой политики является решающим фактором успеха проблемы и ее решения. При этом национальный состав работников сферы печати изучался в сравнении с кадровым составом других государственных органов ТАССР.

Abstract

This article analyzes the personnel working in the press system of the Turkestan ASSR, their national composition. One of the main issues is the system of personnel training, their qualification improvement and retraining. Correct implementation of this policy is a decisive factor in the success of the problem and solution. In this case, the national structure of the employees in the field of the press was studied in comparison with the personnel structure of other state bodies in TASSR.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, sovet hukumati, sovet davriy nashrlari, davriy matbuot, gazeta va jurnallar, matbuot tizimi, kadrlar masalasi, davlat siyosati, milliy tarkib, yevropalik aholi vakillari.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, Советское правительство, советская периодика, периодическая печать, газеты и журналы, система печати, кадровый вопрос, государственная политика, национальный состав, представители европейского населения.

Key words: Turkestan ASSR, Soviet government, Soviet periodicals, periodical press, newspapers and magazines, press system, personnel issue, state policy, national composition, representatives of the European population.

KIRISH

Har qanday davlatning siyosati bevosita turli kasb egalari faoliyatni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Bu jarayon xalq taqdirida ijtimoiy-iqtisodiy va obyektiv ehtiyojdan kelib chiqadigan tarixiy zaruriyat hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, 1917-1924-yillarda sovet hokimiyatining matbuot tizimida kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatini tahlil qilish muhim ahamiyatiga egadir.

Turkiston ASSRda kadrlar siyosatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning milliy masala bilan yaqin aloqada bo'lganligidir. Bu davrda "buyuk davlatchilik shovinizmi" tushunchasi paydo bo'ladi. "Buyuk shovinizm" partiya-davlat arboblariga aylangan kechagi lyumpenlarning sa'y-harakatlari bilan qayta jonlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

TASSRda ham ierarxiya va byurokratik bir xillik barcha hokimiyat va boshqaruva organlariga tarqalgan. 1921-yil 1-mart holatiga ko'ra, Turkistonda 6 ta ijroiya qo'mita, 33 ta tuman ijroiya qo'mitasi va 431 ta volost ijroiya qo'mitalari faoliyat yuritgan. Revkomlar 44 ta volostda saqlanib qolib, ulardan 32 tasi Farg'ona, 9 tasi Samarqand, 2 tasi Kaspiyorti va 1 tasi Sirdaryo viloyatlarida faoliyat olib borgan[1]. 1922-yildan boshlab barcha komissarliklar va mahalliy Kengashlar uchun yagona etalondagi tuzilma va shtatlar tashkil etilgan. 1924-yilning boshiga kelib, ular aniq bir ko'rinishga ega bo'lgan. Turkiston Respublikasi MIQning 9-sonli qarori bilan Turkiston davlat muassasalari bo'yicha shtatlarning umumiyligi soni 16385 shtat birligidan iborat etib belgilanadi. Turkiston avtonom sovet respublikasi (TASSR)ning davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, viloyat ijroiya qo'mitalari bo'yicha 736 ta shtat, uezd ijroiya qumitalari bo'yicha 823 ta shtat va shahar ijroiya qo'mitalari bo'yicha 78 ta shtat birligi taqsimlanadi [2]. Shuningdek, mas'ul xodimlarning ish haqi TASSR XKS sining 1921-yil 15-martdagi 57-sonli qaroriga asosan tenglashtiriladi. 1922-yil aprel oyidan boshlab esa respublikada kadrlarni muntazam ravishda rejali ko'chirib o'tkazish tizimi joriy etiladi.

Kadrlarni hisobga olish, taqsimotini nazorat qilish uchun turli xil maxsus organlar tashkil etildi. Dastlab uning negizini, 1919-yili asos solingen TKP MQning Hisob-intizom bo'limi tashkil etdi. 1923- yilga kelib, sovetlarning boshqaruva kadrlarini hisobga olish va taqsimot mexanizmi aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, 1923-yil 5-fevraldag'i Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (BMIQ) Rayosatining qaroriga asosan, №06720 Ko'rsatma va 1923-yil 21-fevralda esa "Malakali sovet xodimlarini ro'yxatga olish to'g'risida" Yo'riqnomalar qabul qilinadi. 1923-yil 3-avgustdag'i maxfiy ko'rsatmaga asosan, amalga oshirilayotgan ishlar o'ziga hosligini hisobga olgan holda OGPUga nisbatan bu talablar qo'llanilmagan. Kadrlarni hisobga olish tartibi va kadrlar nomenklaturasini shakllantirish masalasi 1923-yil 5-fevraldag'i 8-sonli Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qarori bilan yanada rivojlantiriladi. 1923-yil 21-mart kuni TurkMIQda Tashkiliy instruktorlik bo'limi tashkil etildi. [3] Shuningdek, rahbar kadrlarini alohida tanlab olish mezonlari ham ishlab chiqildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oddiy xodim kadrlari bilan mehnat bo'limining taqsimlash organlari shug'ullangan bo'lsa. Mas'ul xodimlar esa faqatgina partiya tizimi orqali, ya'nii nomenklatura mexanizmi orqali boshqarilgan. Masalan, yuqori lavozimdag'i kadrlarni hisobga olish ma'lumotlariga ko'ra, "eng faol" kadrlar darajasiga sanoqli kishilar kirgan. Shunga ko'ra, Moskvaning markaziy muassasalaridan – 100 nafar rahbar, Ukrainadan – 50 nafar rahbar, Sibirdan – 30 nafar rahbar va Turkistondan – 25 nafar rahbar hodimlari ushbu ro'yxatga kiritilgan. Viloyat miqyosidagi mas'ul "yuqori malakali" kadrlar toifasiga esa, 1924-yil ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari xamda Namangan uezdi bo'yicha – 907 nafar rahbarlar kiritilgan bo'lib, ulardan faqat 2 nafari mahalliy xalqlarning vakillari edi [4].

Turkistonda sovet hokimiyada kadrlar siyosatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri Rossiyaning markaziy hududlaridan "kadrlarni safarbar qilish" edi. Masalan, 1919-yil oxiriga kelib 400 nafar rahbar kadrlar Turkistonga yuborilgan bo'lsa, 1920-yilning fevralidan sentyabr oyigacha 476 nafar, 1920-yilning avgustidan 1922-yilning avgustigacha 1168 nafar, 1921-yilning sentyabridan 1923 yilning yanvariga qadar 700 nafardan ortiq turli kadrlar yuborilgan edi. 1923-yilga kelib markazdan safarbar qilingan kadrlar soni 1396 nafarni tashkil etar edi. Safarbar etilgan kadrlar, avvalo, markaziy viloyat, tuman va shahar partiya va sovet organlariga, shuningdek, vazirlik va idoralarga rahbarlik lavozimlariga yuboriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

E.Ollvortning so'zlariga ko'ra, kadrlar safarbarligi oshgani sayin "o'zbek va qozoq ishchilarini ularning qo'lida o'yinchoq bo'lib qolganlar"[5].

Rasmiy kadrlar safarbarliklari bilan bir qatorda, kadrlarning o'zboshimcha ko'chib kelishi xolatlari ham mavjud bo'lib, bu safarbarlik ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy sabablar bilan bog'liq edi. Biroq, ayrim hollarda safarbarlik majburiy bo'lib bo'yusunmaganliklari uchun bir qator mas'ul xodimlar jazoga ham tortilib, ularning ishlari esa nazorat komissiyasiga topshirilgan.

Turkistonda partiya va davlat nazorati organlari - Turkiston Ishchi-Dehqon inspeksiysi (RKI) va Nazorat Komissiyasini tashkil etish va rivojlantirish jarayonini o'rganish kadrlar masalasi mavzusida alohida e'tiborga loyiq. Amalda, inspeksiya organlari ishchilar va dehqonlar uchun

TARIX

davlatni boshqarishni o'rganadigan maktab bo'lishi kerak edi. Ular 1923-yili qayta tashkil etilganidan so'ng, partiya qo'mitalari bilan birlashdilar. Kadrlar nazorati faoliyatini uchun partiya rahbariyatining qarorlari asos sifatida qabul qilina bordi, ushu tashkilot tomonidan xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlar esa, asosan repressiv xarakterga ega bo'lgan. Sovet davri mobaynida kadrlar siyosati mexanizmining yana bir elementi "kadrlar tozalovi" bo'lib, uning o'tkazilishi GPU organlarining ko'sratmalari asosida "mutlaqo maxfiy" tarzda amalga oshirilishi kerak edi. Uning asosiy mexanizmi bo'lgan, nazorat organlari esa, asta-sekin repressiv organlariga aylana borgan. Natijada, Turkiston XKSning 1923-yil 27-fevraldag'i davlat apparatini qisqartirish va soddalashtirish to'g'risidagi qarori asosida amalga oshirilgan tozalash va qisqartirishdan so'ng faqatgina 24 ta boshqarma, 68 ta bo'lim va 98 ta boshqa bo'g'inlar qolgan edi[6].

Sovet xokimiyatining dastlabki davrlaridayoq jurnalist kadrlar tayyorlash va ularni bir tashkilotga uyuştirish yuzasidan tayyorgarlik ishlari olib borildi. Natijada 1918-yilda jurnalistlar uyushmasi tashkil topdi. Uyushmaning Nizomida aytishicha, uning maqsadi gazetalar uchun xodimlar tayyorlashdan iborat edi. O'lkada sovet matbuotining dastlabki shakllanish davrida jurnalist kadrlar tayyorlash juda xam muxim va zarur edi. Shu maqsadda, 1920-yilda jurnalistlar uyushmasi huzurida alohida seksiya tashkil etildi. Uning oldiga sovet matbuotini o'lkada kengaytirishga hissa qo'shadigan jurnalist xodimlar tayyorlash vazifasi quyildi.

Turkiston ASSRda sovet matbuotining dastlabki uch yillik faoliyatiga yakun yasash, uning kamchiliklarini va bundan keyingi yangi vazifalarni aniqlash maqsadida 1920-yil 18-iyunda Toshkentda Turkiston matbuot bo'limlari boshliqlarining 1-o'lka syezdi chaqirildi[7].

Syezdda Turkiston matbuot markazi oldida turgan vazifalar, joylarda sovet matbuotining holati to'g'risida, Turkiston matbuot markazining faoliyati, hamda tashkiliy masalalar muhokama qilindi. Birinchi masala yuzasidan syezd Turkiston matbuot markazining o'lkada proletar aholi orasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borishini kuchaytirishiga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Shuningdek, qarorda Qizil armiya askarlarini bolshevistik adabiyotlar bilan ta'minlashni yaxshilash zarurligi aytib o'tildi.

Bundan tashqari Syezdda joylarda sovet matbuotini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ayrim davriy nashrlarning tirajini oshirish, davriy matbuot sohasida kadrlar yetishmayotganligi ko'sratib o'tildi. Turkiston matbuot markazining faoliyatini yaxshilash yuzasidan qimmatli takliflar ilgari surildi. Chunonchi, delegatlar yoshlarni matbuot materiallarini tarqatishga keng jalb etish, ayrim xodimlarni joylarga yuborib, davriy nashrlar faoliyatini yaxshilash singari takliflarni kiritdilar.

1920-yil noyabrida Turkkomissiya tomonidan chaqirilgan kengash yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilishda katta rol uynadi. Kengash ishida Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti, Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti, Turkiston siyosiy boshqarmasi, Turk Rosta, Turkiston matbuot Markazi, Turk Rostaning Sharq bo'limi, Izvestiya, Ishtirokiyun va Davlat nashriyoti vakillari ishtirok etdilar. Bu kengash Turkiston o'lkasida sovet davriy matbuotini shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. S'ezdda sovet matbuotining joylardan kelgan vakillari ishtirok etdilar. S'ezdda proletar matbuotining tajribasi bo'lmasa ham katta ish qildi, deb qayd qilindi. Turkiston Respublikasida matbuotning ahvoli to'g'risidagi masala yuzasidan qabul qilingan qarorda quyidagi vazifalar ko'sratilgan:

1. Matbuotning "yot elementlari"ga qarshi kurashish;
2. Davriy nashrlar orqali o'lkada Sovet davlati mafkurasining asosiy vazifalarini keng mehnatkashlar ommasiga tushuntirish;
3. O'lkadagi sovet davlat organlari: mahalliy partiya tashkilotlari, kasaba uyushmalari, kooperativ tashkilotlarning faoliyatini izchil suratda yoritib borish, ularning faoliyatini tanqidiy tahlil qilish.

Qarorda bu vazifalarni bajarish yo'llari va tadbirlari ham belgilab berilgan. Chunonchi, partiya va sovet tashkilotlari huzurida adabiyotchi va muxbirlarning kollegiyalarini tuzish, mas'ul xodimlarning gazetalarda ishtirok etishini ta'minlash, jurnalistlar tayyorlash uchun maxsus kurslar, adabiy kollegiyalar tashkil etish va boshqa masalalar shular jumlasidan. Kezi kelganda aytib o'tish kerak, sovet davriy nashrlari TASSR mahalliy aholisi hayotiga chuqr kirib borishda bolsheviklar bor kuch-g'ayratini sarfladi. Bu esa keyinchalik o'zining kutilgan samarasini ham berdi.

Shuningdek, Syezdda ayniqsa poligrafiya sanoatining ahvoliga katta e'tibor berildi. Harf teruvchilar va boshqa mutaxassislarni tayyorlash maqsadida sovet matbaachilari maktablarini ochish, respublikada bosmaxona tarmoqlarini rivojlantirish kabi tadbirlar belgilandi.

1921-yil dekabrda Turkiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti qoshida tashkil qilingan matbuot bo'linmasiga ham asosiy vazifalaridan biri sifatida sovet davriy nashrlarini kadrlar bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi. Bo'linma mudiri etib bolshevik-publisist A.Zonin, uning o'rindbosarligiga esa Qosim Sorokin tayinlandi[8].

Shu o'rinda aytib o'tish kerak ushbu yillarda Turkiston ASSRda bir qator sovet davriy nashrlarida faoliyat boshlagan juralist, publisistlar yetishib chiqdi. A.Zonin, Q.Sorokin, U.Ishanxojaev, K.Osmanov, Sevastyanov va boshqalar shular jumlasidan.

XULOSA

Bu davrda TASSR matbuot tizimidagi yuqori va o'rta bo'g'in vakillarining katta qismini boshqa sohalarda bo'lgani kabi aholining yevropalik vakillari tashkil qilgan. Buni Turkiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi matbuot bo'linmasining 1924-yil iyulda tasdiqlangan kollegiyasi tarkibida ham yaqqol ko'rish mumkin. Kollegiya tarkibida Turkiston matbuotining turli bo'g'inlarida faoliyat olib borgan vakillar jumladan, F.Ksenofontov, B.Mayberg, Ya.Faktorovich, S.Lyubimova, K.Kalinichev[9] kabilar bor edi.

Xullas Turkiston ASSRdagи boshqa sohalar qatorida matbuot tizimida ham dastlab faoliyat olib borgan xodimlarning katta qismini yevropalik aholi vakillari tashkil etgan. Bolsheviklar mahalliy aholi orasida o'z tayanchini yaratishni maqsad qilib bunda matbuotdan "qurol" sifatida foydalandi. Shu tufayli matbuot sohasida mahalliy kadrlarni ko'paytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirdi. Biroq o'rganilayotgan davrda tizimda mahalliy aholining ulushi pastligicha qolaverdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т: Шарқ, 2000. – С. 399.
2. O'zMA, P-17-fond, 1-ro'yxat, 805-ish, 4-varaq.
3. O'zMA, P-17-fond, 2- ro'yxat, 82-ish, 39- varaq.
4. O'zMA, P-17-fond, 2- ro'yxat, 124-ish, 1-4- varaq orasi.
5. Воскобойников Э., Зевелев А. Турккомиссия ВЦИК и Совнаркома РСФСР и Туркбюро ЦК РКП(б) в борьбе за укрепление Советской власти в Туркестане. – Ташкент, 1951. – С. 77.
6. Атаджанов А.Р. Организация и деятельность рабоче-крестьянской инспекции Туркестанской АССР (1920-1924 гг): дисс.... канд. ист. наук. – Т., 1966. – С. 172.
7. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870-1924 yillar). – Т: O'ZDAVNASHR, 1959. – В. 128.
8. O'zMA, P-34-fond, 1- ro'yxat, 2155-ish, 57-varaq.
9. О партийной и советской печати. Сборник документов. – М: Правда, 1954. – С. 248.